

HARBIY XIZMATCHILARNING DIQQAT TAQSIMLANISHINING GENDER XUSUSIYATLARI

Omonov Kamoliddin Ibrat o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti "Xizmat faoliyatini
tarbiyaviy-psixologik ta'minlash" yo'nalishi 3-bosqich kursanti

Annotatsiya: Harbiy xizmatchilarda harbiy aniqlik, aytilgan ma'lumotlarni tezda o'zlashtirish, hamda diqqatni rivojlantirish asosiy vazifalardan biri bo'ladi. Harbiy xizmat faoliyatida gender xususiyatlarining asosiy ko'rinishi ularning kognitiv jarayonlarining rivojlanganligi asosiy rol o'ynaydi. Gender farqlarda asosan biologik, ijtimoiy operatsion psixogenetik aspektlarga e'tibor qaratilishi muhimdir.

Kalit so'zlar: adaptatsiya, diqqat, hissiy signallar, diqqat tarqoqligi, dual task (ikki yoqlamalik), geterogen, psixologik barqarorlik, biografik metod.

Gender farqlari bu sohada muhim rol o'ynaydi, chunki ular operatsion samaradorlik va xavfsizlikka ta'sir qiladi. Mavjud tadqiqotlar asosan G'arb mamlakatlaridagi harbiy xizmatchilarga asoslangan bo'lib, erkak va ayollar o'rtasidagi farqlarni kognitiv testlar orqali o'rganadi. Birinchi muhim tadqiqot Flood va boshqa. (2022) tomonidan o'tkazilgan bo'lib, u harbiy erkaklar va ayollarning uzoq muddatli yuk tashishdagi kognitiv ishlashini baholaydi. Eksperiment jarayonida 12 erkak (infanteriya) va 10 ayol (artilleriya) harbiy xizmatchilar 3 soatlik yuk tashish vazifalarini bajargan, yuklar 21-43kg oralig'ida bo'lgan. Kognitiv testlar soatiga bir marta o'tkazilgan: n-bask vazifalari (0-3 darajali diqqat va xotirani yangilashni o'lchaydi). Natijada ikkala genderda ham kognitiv pasayish kuzatilgan, ammo ayollar yengil yuklarda va oddiy vazifalarda kattaroq pasayish ko'rsatgan.

Tadqiqotlar natijasida harbiy xizmatchilar orasida diqqatning mahsuldorligi, hajmi va qayta yo'naltirish darajasi gender omiliga ko'ra muayyan farqlarni namoyon etadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayol harbiy xizmatchilarda diqqatning mahsuldorligi yuqoriroq, ya'ni ular diqqatni uzoq vaqt davomida barqaror saqlay olish, mayda tafsilotlarga e'tibor berish va bir xil faoliyatni aniqlik bilan davom ettirishda ustunlikka ega. Erkak harbiy xizmatchilarda esa diqqatni yo'naltirish qobiliyati ya'ni tezkorlik bilan bir vazifadan boshqasiga o'tish, yangi sharoitga moslashish va murakkab operativ vaziyatlarga mos qarorlar qabul qilish nisbatan yuqoridir.

Diqqat hajmi jihatidan erkak harbiy xizmatchilar odatda ayollarga nisbatan kengroq diqqat maydoniga ega bo'ladilar. Bu ularning bir vaqtning o'zida bir necha obyekt yoki harakatni kuzatish imkonini beradi, ayniqsa jangovar yoki taktik mashg'ulotlarda bu fazilat muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga faol konsentratsiya darajasi ya'ni muayyan topshiriqqa diqqatni to'liq yo'naltirish va uni davom ettirish qobiliyati ayollarda ko'proq rivojlangan. Bu ularning aniqlik, tartiblilik va hissiy barqarorlik talab qiluvchi xizmat yo'nalishlarida, masalan tibbiyot, aloqa, tahliliy yoki ma'muriy faoliyatlarda samarali qo'llaniladi.

Zamonaviy urushlarning tabiati o'zgarishi va ularda yuqori texnologiyali vositalarning keng qo'llanilishi asosan harbiy xizmatchilar orasida axloqiy charchoq, zaiflik hissi, xavotir va nevropsixologik barqarorlikni yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa ularni jang maydonida yuqori jangovar faoliyat ko'rsatishdan to'sadi. Ushbu jarayonlarda diqqatning o'rni juda katta ahamiyat kasb etadi. Rubinshteyn aytganidek, ongimizning yagona eshigi bu diqqatdir. Diqqat harbiy xizmatchilar xizmat faoliyatini o'tash mobaynida muhim ahamiyat kasb etadi. Uning xususiyatlari jamlanishi (konsentratsiya), barqarorligi va bo'linishida namoyon bo'ladi. Ayniqsa harbiy xizmatchilarda diqqat taqsimlanishining gender xususiyatlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar sharhi harbiy Psixologiya va kognitiv fanlarning kesishmasida joylashgan bo'lib, bu mavzu cheklangan, ammo o'sib borayotgan tadqiqotlar sohasini ifodalaydi. Diqqat taqsimlanishi (devident attention) kognitiv psixologiyada bir vaqtning o'zida bir nechta vazifalarni bajarish qobiliyati sifatida ta'riflanadi, bu esa harbiy xizmatchilar uchun

muhim, chunki ular ko‘pincha yuk tashish, nazorat va qaror qabul qilish kabi dual vazifalarni bajarishlari kerak.

Harbiy xizmat amaliyotida kuzatilgan psixologik kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, erkak harbiy xizmatchilar odatda diqqat hajmi bo‘yicha kengroq qamrovga ega bo‘ladilar. Bu ularga bir vaqtning o‘zida bir nechta obyekt yoki harakatlarni nazorat qilish, tez o‘zgaruvchi taktik vaziyatlarni kuzatib borish va qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, jangovar, patrul yoki operativ vaziyatlarda bunday ko‘lamli diqqat maydoni sezilarli ustunlik yaratadi.

Shu bilan birga, faol konsentratsiya ya’ni diqqatni aniq bir vazifaga yo‘naltirish va uni barqaror ushlab turish qobiliyati amaliy tadqiqotlarda xotin-qiz harbiy xizmatchilarda ko‘proq rivojlanganligi qayd etiladi. Ularning puxtalik, aniqlik, izchillik va hissiy barqarorlik talab qiladigan xizmat yo‘nalishlarida (masalan, tibbiy ta’minot, aloqa, tahliliy ishlov berish, ma’muriy boshqaruv) yuqori samaradorlik ko‘rsatishi aynan shu psixologik omillar bilan izohlanadi. Bir so‘z bilan aytganda, erkaklar “keng formatli kuzatuv” bo‘yicha ustun bo‘lsalar, xotin-qizlar “aniq fokus va barqaror diqqat”da oldinga chiqadilar. Har ikki omil esa zamonaviy harbiy tizimning uzviy va zarur jihatlaridan biridir.

Xizmat faoliyatiga adaptatsiyada harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarlik mashqlarini gender xususiyatlariga moslab qo‘llash muhim ahamiyatga ega sanaladi. Raxbar kadrlar o‘z shaxsiy tarkibi bilan ishlashda har bir harbiy xizmatchining diqqat turlari, hissiy barqarorligi va psixologik tayyorgarligini inobatga olishi zarur. Gender farqlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan ish jarayoni harbiy muhitda jamoaviy muvozanatni mustahkamlaydi, stress holatlarini kamaytiradi va umumiy xizmat samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Краси́ло А.И. Психологическое консультирование посттравматических состояний / А.И. Краси́ло. - М.: Московский психолого-социальный институт, 2004. - 96 с.
2. Осухова Н.Г. Психологическая помощь в трудных и экстремальных ситуациях / Н.Г. Осухова. - М.: Академа, 2005. - 283 с.
3. Полинак А.В. Коррекция симптомов отсроченного посттравматического стрессового расстройства у военнослужащих - ветеранов современных вооруженных конфликтов / А.В. Полинак // Адаптивная физическая культура. - 2007. - № 1 (29). - С. 45 - 49.